# TALABALARNING UMUMIY- O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDAGI AMALIYOTGA KASBIY- PEDOGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH USLUBINI ISHLAB CHIQISH

**10.53885/edinres.2022.34.29.134**

**Nurullayev Jasurbek Otaxon o`g`li.**
*O`qituvchi, UzDJTSU, Chirchiq*
*Muallif bilan bog`lanish uchun:* ***@jasurbeknurullayev9990gmail.com***

**Annotatsiya:**Mazkur maqolada talabalarning umumiy-o`rta ta`lim maktablaridagi amaliyotga kasbiy-pedogogik tayyorgarlik darajasini baholash texnologiyasi ya`ni 3, 4 va 5 ballik tizimi hamda ular tayyorgarligidagi asosiy axamiyatga ega bo`lgan o`lchovlar haqida so`z boradi.

**Annotation**: This article depicts the technology of assessing the level of professional and pedagogical readiness of students for practice in secondary schools, the system of 3, 4 and 5 points, as well as the criteria that are important in their preparation.

**Аннотация**: В данной статье изображена технология оценки уровня профессионально-педагогической готовности учащихся к практике в общеобразовательных школах, система 3, 4 и 5 баллов, а также критерии, имеющие значение при их подготовке.

**Kalit so`zlar:** jismoniy tarbiya, sport, mashg`ulot, pedogogik amaliyot, pedogogik ko`nikma, jismoniy sifatlar,baholash tizimi, pedogogik tajriba, malaka.

**Keywords**: physical education, sport, training, pedagogical practice, pedagogical skills, qualification, physical qualities, assessment system, pedagogical experience.

**Ключевые слова**: физическое воспитание, спорт, обучение, педагогическая практика, педагогическое мастерство, квалификация, физические качества, система оценивания, педагогический стаж.

**Mavzuning dolzarbligi.** Pedagogik kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash kompleks muammodir. O‘quv fani sifatida jismoniy tarbiya ijtimoiy faol, garmonik rivojlangan va jismonan barkamaol muallim shaxsining yuqori kasbiy tayyorgarlik darajasini ta’minlashga da’vat etilgandir. Jismoniy tarbiyaning o‘qituvchini o‘qitish va tarbiyalashning pirovard maqsadiga mo‘ljal oldirilgan kasbiy yo‘naltirilganligi aynan shu bilan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar jismoniy madaniyat qadriyatlarini shu darajada egallashlari kerakki, bu daraja faqatgina sog‘liqni mustahkamlash, yuqori kasbiy ishchanlik, jismoniy komillik imkoniyatigina emas, o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish bo‘yicha kasbiy vakolatlilikning yuksak darajasini ham ta’minlash kerak. Bunda o‘qituvchi umum-o‘rta ta’lim maktabida o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash haqidagi nizomda qayd etilgan majburiyatlarning minimumi (eng kami) bilan va tashviqoti, yo‘riqchi-murabbiy va hakam rolida chiqib, o‘qishning va o‘quvchilar dam olishlarining gigiyenik shart-sharoitlarini ta’minlay borib, shuningdek o‘quvchilarning mazmunli va sog‘lom xordiq chiqarishlari, sog‘liqlarini mustaxkamlashlari jismoniy rivojlanishlari, jismoniy takomillashishlari uchun yordam berib ularning bilim doirasini kengaytirish lozim.

**Tadqiqotning maqsadi.**Jismoniy tarbiya mutaxasislarining kasbiy pedogogik ko`nikmalarini takomillashtirish uchun hamda pedogogik amaliyotni samaradorligini oshirish uchun 5 ballik baholash texnologiyasini ishlab chiqish va tahlil qilish.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsaddan kelib quyidagi vazifalarni hal etildi;

- jismoniy tarbiya bo`yicha talabalar kasbiy-pedagogik tayyorgarligining baholanishini yetarli darajada yuqori emasligining ayrim sabablari bo‘yicha ilmiy - uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

- jismoniy tarbiya bo`yicha talabalar kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini 5 ballik baholash texnologiyasini keng tadbiq qilish va talabalar pedogogik amaliyotini natijaviyligini oshirish.

**Tadqiqotning uslublari.** Tadqiqot jarayonida, pedagogik kuzativ nazariy tahlil va umumlashtirish hamda matematik - statistik uslublardan foydalanildi.

**Tadqiqotning muhokamasi.** Talabalarni kasbiy tayyorlash tizimida yetakchi rol pedagogik amaliyotga tegishlidir. U o‘qitish jarayoni va talabalarnig o‘quv-yordamchi muassasalardagi mustaqil amaliy ishlari o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib, talabalarni pedagogik faoliyatning bilish tajribalari bilan qurollantiradi. G‘oyaviy-siyosiy yo‘naltirilganlik, nazariy asoslanganlik, o‘rgatuvchi va

tarbiyalovchi xususiyatlar, uning mazmuni va tashkil etilishiga kompleks yondoshuv, tizimiylik va vorislik – pedagogik amaliyotning samaradorligini asosiy shartlaridir.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash bo‘yicha pedagogik faoliyatda zarur bo‘lgan uslubiy bilimlar va ko‘nikmalarga o‘rgatiladi, shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsining o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni masalasi ham hal bo‘ladi. O‘z harakatlari imkoniyatlarini o‘zlari to‘g‘ri baholashlari, mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun mo‘tadil motivatsiyani (harakatlarning asoslanishini) yaratish uchun talabalar o‘zlarining jismoniy tayyorgarliklari, o‘qitish natijalari, jismoniy takomillashish istiqbollari, shaxsiy va kasbiy ahamiyatga molik xissiyotlarni rivojlantirish haqida joriy va tezkor axborot bilan ta’minlangan bo‘lishlari kerak.

Pedagogik amaliyot jarayonida ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi va boyitiladi, ularni muayyan pedagogik vazifalarni hal qilishda qo‘llash tajribasi tarbiyalanadi; bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik bilimlar, tajriba va ko‘nikmalar hamda kasbiy ahamiyatga molik shaxsiy xususiyatlar va sifatlar shakllanadi va rivojlanadi; o‘qituvchilik kasbiga mo‘tadil qiziqish va muhabbat, pedagogik mustaqil bilim olishga ehtiyoj tarbiyalanadi.

**1-jadval.**

**Talabalarning pedagogik tajriba boshida tajriba guruhlarda kasbiy-pedagogik bilimlarini o‘z-o‘zlari baholashining o‘rtacha ko‘rsatkichlarining qiyosiy taxlili**

| Tartib raqami | Pedagogik bilimlar | Pedagogik tajriba boshida | | Ahamiyatlilik darajasi |
|---|---|---|---|---|
| | | NG | TG | |
| 1 | Buyruqlarni, farmoyishlarni bajarish va saf (guruh)ni boshqarishni bilish | 5,0±0,0 | 4,8±0,4 | <0,05 |
| 2 | Jismoniy mashqlar komplekslarini tashkil qilish va o‘tkazishni bilish | 4,8±0,4 | 4,7±0,5 | >0,05 |
| 3 | Harakatli o‘yinlarni rejalashtirish, tashkil qilish va o‘tkazishni bilish | 4,8±0,4 | 4,6±0,5 | >0,05 |
| 4 | Sport musobaqalarini hakamlikni tashkil qilish va o‘tkaza bilish | 4,6±0,5 | 4,9±0,4 | >0,05 |
| 5 | Ayrim jismoniy mashqlarga o‘rgatish va darsni bir butun taxlil qilishni bilish | 4,8±0,4 | 4,7±0,5 | >0,05 |
| 6 | O‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilish | 4,8±0,4 | 4,7±0,5 | >0,05 |

**Xulosa.**Jismoniy tarbiya bo`yicha talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini baholashni yetarli darajada yuqori emasligining ayrim sabablarini yuqoridagi uslubiy ko’rsatmalarga amal qilinishi maqsadga muvofiq. Umuman olganda ushbu jarayon ko‘p omilli xususiyatga ega bo‘lib, murabbiy va sportchilardan esa doimiy ijodiy izlanishlari asosida samarali mashg‘ulotlarni olib borishlari, yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qiladi va shu o`rinda 5 ballik baholash tizimidan foydalanish va uni keng tadbiq qilish ham asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Salamov R.S. “Sport mashg`ulotlarining nazariy asoslari”. 2 jild. Darslik. ITA-PRESS. T. 2015. 181 b.
2. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. Учебник. Москва. – 2010 г.
3. Ruzioksunova M.M., Sharipov A. The structure and content of the pedagogical practice of future specialists in physical culture and sport.// " Academician of the lyceum and problems of physical development in vocational colleges "Scientific-practical anzhu of the subject republic. Andijan, 2003. - P..

4. Seleznev A.I. Research on the methodology of preparing students of physical education faculties for teaching practice at school in the gymnastics section: Abstract of the thesis. dis. …cand. ped. the science. M., 1978. - 17 p.

5. Stepanova G.A., Bulatova G.A., Rimazov R.M. Professional non-pedagogical training of future specialists in physical culture and health improvement of school children. // Theory and practice of physical. culture. - 2003. - N 4. - S. 60-

6.Филимонова С.И. Формирование готовности специалиста физической культуры к педагогической самореализации: Автореф. дис. … канд. пед. наук. – СПб., 1997. – 24 с., 6 рис.

1. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1011-1016.

2. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.

3. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 242-249.

4. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.

5. Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).

6. Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, *11*.

7. Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(1), 372-379.

8. Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.

9. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.

10. Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 1212-1220.

11. Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.

12. Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball //Innovatsionnoerazvitienauki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya. – 2020.

13. Rasulovna S. N. THE PLACE OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN THE LIFE OF SCHOOL STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 306-312.

14. Rasulovna S. N. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES //E-Conference Globe. – 2021. – С. 299-305.

15. Sabirova Nasiba Rasulovna. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022

16. Akmalovich, D. B., Khalilovich, T. M., Rasulovna, S. N., & Savrievich, F. F. (2020). Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. *Journal of Critical Reviews*, *7*(6), 466-469.

17. Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

18. Усмонов, Ш. Х., Самадов, С. С., & Фармонов, А. Ч. (2021). Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов. *Вопросы науки и образования*, (4), 129.

19. Xujamurodovich, U. S. (2022). CORRECTIONS IN JUMPING IN THE DEFENSIVE BLOCK AGAINST AN OPPONENT IN VOLLEYBALL. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(1), 442-450.

20. Azimovna F. M. The quality assessment technology and development techniques in volleyball players //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 242-248.

7